



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHI QARORI

210100, Navoiy sh., IslomKarimovsh.k 77 A, tel: (79) 229-62-80, e-mail: navoi@exat.uz, info@navoi.uz

2024 - yil 16 - yanvar

VI-67-4-5-0-K/24

Navoiy viloyati hokimligi

Navoiy viloyati bo'yicha 2024-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i stavkalarini hamda mol-mulk solig'ini hisoblashda qo'llaniladigan eng kam qiymatni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 412-, 429- va 437-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli Farmoniga muvofiq, Navoiy viloyati bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarning va jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) belgilangan yer soliqlarining 2024-yil uchun soliq stavkalarini hamda yuridik shaxslarning mol-mulkklari uchun mol-mulk solig'ini hisoblashni tartibga solish maqsadida, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 412-, 429- va 437-moddalariga asosan 2024-yilda viloyat bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarning bazaviy soliq stavkasi mutlaq miqdori 1 gektar uchun 36,0 mln. so'm, jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) belgilangan yerlarining 1 kv. m uchun bazaviy soliq stavkasi mutlaq miqdori 320,0 so'm hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulk solig'ini hisoblashda 1 kv. m uchun eng kam qiymati belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'. Boboqulov) hamda viloyat soliq boshqarmasi (A. Botiraliyev)ning hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun

belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tumanlar va shaharlar bo'yicha 2024-yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarning va jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) belgilangan yer soliqlarining 2024-yil uchun soliq stavkalarini hamda yuridik shaxslarning mol-mulklari uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kamaytiriluvchi koeffitsiyentlarni qo'llash bo'yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Shaharlar va tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab quyidagilar:

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha 2024-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer solig'ining bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) 2024-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda 1 kv. m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

Yuridik shaxslarning mol-mulki uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda 2024-yilda 1 kv. m uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429- va 437-moddalariga asosan, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, 1 va 2-ilovaga asosan qo'llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga egaligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2024-yilda belgilangan yer soliq stavkalarini joriy yilning 10-yanvariga qadar hududlardagi soliq organlariga taqdim etilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qaror "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalarida rasmiy e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari T. Atamuradov va xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari

bo'yicha doimiy komissiyasi (G'. Aliyev) zimmasiga yuklansin.

Sessiyada raislik qiluvchi



J.Hamrayev

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2024-yil 16-yanvardagi
VI-67-4-5-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

**Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha
2024-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer solig‘ining
bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar**

T/r	Shaharlar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun	
		Koeffitsiyent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)
1	Navoiy shahar	1,60	57 600 000,0
2	Zarafshon shahar	1,30	46 800 000,0
3	Uchquduq tuman	1,20	43 200 000,0
4	Konimex tuman	1,20	43 200 000,0
5	Qiziltepa tuman	1,35	48 600 000,0
6	Tomdi tuman	1,00	36 000 000,0
7	Navbahor tuman	1,20	43 200 000,0
8	Xatirchi tuman	1,25	45 000 000,0
9	Nurota tuman	1,20	43 200 000,0
10	Karmana tuman	1,35	48 600 000,0
11	G‘ozg‘on shahar	1,10	39 600 000,0

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2024-yil 16-yanvardagi
VI-67-4-5-0-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) 2024-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda 1 kv. m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar

T.r	Shaharlar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasi 2024-yil uchun	
		Koeffitsiyent miqdori	Soliq summasi (1 kv. m uchun, so'mda)
1	Navoiy shahar	1,70	544,00
2	Zarafshon shahar	1,35	432,00
3	Uchquduq tuman	1,25	400,00
4	Konimex tuman	1,20	384,00
5	Qiziltepa tuman	1,40	448,00
6	Tomdi tuman	1,00	320,00
7	Navbahor tuman	1,25	400,00
8	Xatirchi tuman	1,30	416,00
9	Nurota tuman	1,20	384,00
10	Karmana tuman	1,40	448,00
11	G'ozg'on shahar	1,10	352,00

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2024-yil 16-yanvardagi
VI-67-4-5-0-K/24-son qaroriga
3-ilova

**Yuridik shaxslarning mol-mulki uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda
2024-yilda 1 kv. m uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan
qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

T.r	Shaharlar va tumanlar nomi	Mol-mulk solig'ini hisoblashda 2024-yilda 1 kv. metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan qo'llaniladigan (Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga tegishli subyektlardan tashqari)
		Koeffitsiyent miqdori
1	Uchquduq tuman	0,50
2	Konimex tuman	0,50
3	Qiziltepa tuman	1,00
4	Tomdi tuman	0,50
5	Navbahor tuman	0,90
6	Xatirchi tuman	0,90
7	Nurota tuman	0,90
8	Karmana tuman	1,00